






YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyunida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 16 127,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	
	I. YaHM	13 513,2	16 127,2	105,0
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 033,2	15 289,8	105,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	480,0	837,4	102,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 033,2	15 289,8	105,1
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 090,0	5 911,1	108,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 873,3	4 597,5	104,7
	sanoat	3 164,9	3 714,3	105,6
	qurilish	708,4	883,2	100,4

		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	Xizmatlar	4 069,9	4 781,2	101,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	937,0	1 065,5	100,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	759,1	836,4	101,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 373,8	2 879,3	101,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 135,2 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.



Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,2 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,4 % punktga kamaydi va hisobot yilida 38,7 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining ulushi 24,3 % ni tashkil qildi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda o`zgarmadi. Qurilish sohasida esa 0,4 % punktga o`rdi va 5,8 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 31,2 % ni tashkil qildi va o`tgan yildagi ko`rsatkich saqlanib qoldi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

		2019-yil	2020-yil
	I. YaIM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	96,4	94,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	5,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	39,1	38,7
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	29,7	30,1
	sanoat	24,3	24,3
	qurilish	5,4	5,8
	Xizmatlar	31,2	31,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	7,2	7,0

		2019-yil	2020-yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	5,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	18,2	18,7




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 108,5 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 38,7 %), sanoatda – 105,6 % (24,3 %), qurilishda – 100,4 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 101,2 % ni (31,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o`shish sur`atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 100,8 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 101,1 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,5 % dan (18,7 %) iborat bo`ldi.




Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning “Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi” kabi tarmoqlari YaHMning mos ravishda 3,2 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida 0,4 f.p.), sanoat 1,3 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida 4,5 f.p.), xizmatlar 0,4 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida 1,7 f.p.) ga o`shishiga hissa qo`shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,1 f.p. ga o`shishi ta`minlandi (2019- yilning yanvar-iyunida 0,3 f.p.).



2020- yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning hissi (jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 124,1 % va xizmatlarda – 116,0 % qayd etildi.



Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

